

KONSERT JANRINING TARAQQIYOT YO'LI

Boltaboyeva Sohiba No'monjon qizi

O'zbekiston davlat konservatoriyasi magistranti

Annotatsiya : *Mazkur maqolada konsert janiri taraqqiyot yo'li qisqacha yoritib o'tilgan. Konsert tarixi va mazkur sohada ijod qilgan kompozitorlar ijod na'munalari orqali ma'lumotlar to'plandi. Italiya va rus kompozitorlari ijodi , klassik va romantizm davrlaridagi ijodiy na'munalar haqida batafsil yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *“Konsert”, klassik davr, romantizm davri, Doppelkonzert, Triepelkonzert, Quadrupelkonzert, Mosart, Betxoven, ijrochi ansambl*

“Konsert” (nem. Konzert, ital. Concerto, lotinchada concertus) so'zi – musobaqalashish ma'nosini bildirib, yakkaxon va ko'p ijrochilar (zamonaviy talqinda - orkestr) uchun mo'ljallangan asarni o'zida namoyon etadi. Unda yakkaxon (yoki bir nechta) ijrochi ansambl (yoki orkestrga) o'zining musiqiy matni, mavzu doirasi, yorqin jarangdorligi, cholg'ular tembrlarining imkoniyatlaridan keng foydalanilgan holda qarama - qarshi taqqoslab turishi nazarda tutiladi. Tarixga nazar tashlar ekanmiz, XVIII asrning oxirida konsert yakkaxon sozanda va orkestr uchun bo'lgan musobaqa ko'rinishda keng tarqalganligining guvohi bo'lamiz. Konsertlarni bir necha cholg'ular uchun ko'rinishi mavjud bo'lib, ular “juftli”, “uchtali”, “to'rttali” (nem. Doppelkonzert, Triepelkonzert, Quadrupelkonzert) konsert deb atalgan. O'tmishda konsertlarning har xil ko'rinishlari shakllangan. Orkestrsiz faqat yakkaxon sozanda uchun, yoki aksincha, faqat orkestr uchun konsertlar ham yaratilgan misollar mavjud. Konsertlar shuningdek ovoz (yoki ovozlari) va orkestr uchun, yoxud xor a'cappella uchun ham yaratilgan. Konsert janrining vokal – polifonik va Concerto grosso (ya'ni, katta konsert) ko'rinishlari ijrochilik amaliyotida keng rivoj topgan.

Konsert janrining shakllanishiga turtki bo'lgan muhim omillar asosan Venesiya maktabi namoyondalari ijodida ilk bor keng qo'llanilgan va keng tarqalgan. Konsert janrining paydo bo'lishi bevosita diniy musiqa bilan bog'liq bo'lib, diniy marosimlarda ijro etiladigan xor musiqasi mukammalashtirilgan, xorlardagi serqatlamlik va bir biriga taqqoslanishlar, ovoz va cho'lg'u musiqasiga bo'linishiga olib kelgan. Bunday rivojlanish ansambl (orkestr) va yakkaxonlarni solishtirishi, ularning tarkibidan yakkaxon partiya va ovozlarni ajralib chiqarilishiga olib kelgan. Eng birinchi konsertlar Italiyada cherkov polifonik musiqasida XVI asr oxiri XVII asr boshlarida paydo bo'lgan (A.Bank'ering juft xor uchun Concerti ecclesiastic, 1595; L.Viadanning 1-4 ovoqli raqamli bas uchun motetlar “Cento concerti ecclesiastici”, (1602-1611) ni eslash joiz). Shunday konsertlarda katta vokal va cholg'u partiyalardan tortib to sanoqli vokal va general bas partiyalargacha turli tarkibdagi ijrochilar qo'llanilgan. Biroq shuni qayd etish lozimki, “Concerto” nomlanishi bilan mazkur asarlar ba'zan motetti, motectae, cantios sacrae kabi nomlari bilan ham amaliyotda ishlatilgan. Cherkov musiqasining eng yuqori konsert shakli – polifonik uslubda bajarilgan bo'lib, XVIII asr birinchi

yarmida yaratilgan buyuk nemis kompozitori I.S.Bax kantatalari misolida namoyish bo'ladi. Muallifning o'zi ushbu kantatalarga concerti Deb nom bergan edi. Konsert janri o'z vaqtida rus cherkov musiqasida ham keng o'rin olgan. Xususan, XVII asrning oxiridan boshlab partes kuylashga taaluqli bo'lgan a'cappella uchun ko'p ovozli asarlarda konsertning o'zgacha turi namoyon etildi. Bunday konsert kuylashning nazariy tomonlarini N.P.Dileskiy ishlab chiqan. Rus kompozitorlari cherkov konsertlarida ko'p ovozli mahorat texnikasini keng rivojlantirishadi. Xususan, cherkov konsertlarida 4, 6, 8, 12 va undan ortiq hatto 24 ovozigacha partiyalar ishlatilgan. Bugunda Moskvaning Sinodal xorida 500 ga yaqin bunday konsert janrlarining misollari mavjud. Xususan, XVII-XVIII asr konsertlariga V.Titov, F.Redrikov, N.Bavikinlarning asarlarini ham kiritish mumkin. Cherkov konsertlarining rivoji XVIII asr oxirida M.S.Berezovskiy va D.S.Bortnyanskiy tomonidan davom ettirilgan. Ular yaratgan konsertlar kuychanligi, ariozali uslubi bilan ajralib turadi. Italiyada XVII asrdan boshlab cholg'u musiqa san'atiga bir necha yakkaxon ovoz (cholg'ular) orasidagi "musobaqa qilish", "kurashish" tamoyili kirib kelib, o'zining yorqin ifodasini – syuita va cherkov sonatalarida topadi va ma'lum ma'noda cholg'u konsert janrini shakllanishi uchun zamin yaratadi. R.Mellining "Balletto concertata" (1616), D.Kastelloning "Sonata concertata" (1629) asarlari shular jumlasidan. XVII asr oxirida aynan kontrast taqqoslash ("musobaqa qilish") asosida, orkestr (tutti) va yakkaxon (solo), bir necha cholg'ular guruhi va orkestr orasidagi munosabatlarga, ya'ni Concerto grosso janriga asos solindi. Dj.Bononchinining Concerti da camera a 3 con il cembalo (1685), Dj.Torellining Concerto da camera a 2 violini e Basso continuo (1686) asarlari shular jumlasidanidir. Ta'kidlash joizki, Bononchini va Torelli qalamlariga mansub konsertlar sonata shaklidan bevosita konsert janriga o'tish jarayonini namoyon qilgan edi. Konsert janrining asl ko'rinishi esa faqat XVIII asrning birinchi yarmida taniqli italyan kompozitori Antonio Vivaldi ijodida to'laqonli shakllanadi. XVIII – asrdagi konsert janri o'zida uch qismli shaklni tashkil qilib, uning chekka bo'limlari bir muncha tez sur'atda berilib, o'rta qismga qarama- qarshi qo'yilgan. Tez qismlar asosan bitta mavzuga asoslangan (ba'azan esa 3 ta mavzu ham ularda o'rin olgan). Ushbu mavzu orkestrda o'zining asl ko'rinishda o'tib refren-riturnel - rondo turdagi yakka mavzuli allegro turini tashkil qilgan. A.Vivaldi ijodiy faoliyati davomida Concerti grossi, yakkaxon cholg'ular – skripka, violonchel, viola d-amur, turli damli cholg'ular uchun konsertlar yaratdi. Konsert janrida yakkanavoz partiyasi dastlab asosan bog'lovchilik vazifalarini o'tagan bo'lsa, janrning evolyusiyasi davomida asta - sekin sof konsertlik belgilariga ega bo'lib, mazmunan mustaqil mavqeni kasb etdi. Konsert janrida musiqiy mato tutti va solo partiyalarining taqqoslanishi asosida rivojlantirilib, ular orasidagi kontrastlar dinamik vositalar yordamida kuchaytirilgan. Konsertlarning figuratsiyasi ravon ko'rinishga ega bo'lib, ularda sof gomofon yoki polifonik tuzilmali fakturalar keng o'rin olgan. Yakkanavozning boshchiligi asosan tovushlarni bezaklar bilan katta mahorat bilan chalish va ijroning tez sur'ati bilan xarakterlangan. Konsertning o'rta qismi ko'pincha ariozali uslubda bayon etilgan. Patetik ko'rinishdagi yakkaxon ariyasi orkestrning akkordli tuzilmalari fonida yangragan. Shu singari konsertlar XVIII asrning

birinchi yarmida nihoyatda keng tus olgan. I.S.Bax tomonidan yaratilgan klavir konsertlarini ham mana shunday konsertlar qatoriga kiritish mumkin. Ularning ayrimlari I.S.Baxning skripka uchun konsertlarining qayta ishlangan variantini, yoki A.Vivaldining skripka uchun konsertlarining 1-, 2- va 4- klavir uchun moslashtirilgan ko'rinishini aks etadi.

Ta'kidlash joizki, I.S.Baxning konsertari G.F.Gendelning klavir va orkestr uchun yaratgan konsertlari kabi fortepiano konsertlarini rivojlanishi uchun katta yo'l ochib berdi.

Ma'lumki, G.F.Gendel shuningdek, organ konsertning otaxoni xisoblanadi. Kompozitor o'z konsertlarida yakkaxon cholg'ular sifatida skripka va klavirdan tashqari violonchel, viola d'amur, goboy, truba, fagot, yonlama fleyta kabi ko'pgina boshqa cholg'ularni ham qo'llagan. Turli cholg'ularning solo sifatida qo'llanilishi konsertlarning mazmun-mohiyati, ularning temb rang-barangligiga olib kelgan. Bundan tashqari, har bir cholg'uning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari asarda musiqiy fikrning rivojlanishiga ham bevosita o'ta'sirini ko'rsatgan. Bu esa kompozitor uchun konsert yaratishda keng imkoniyatlar va rang barang mavzu bastalashda katta yordam bergan.

XVIII asrning ikkinchi yarmida klassik turdagi cholg'u konsertining ko'rinishi shakllandi va Vena klassik kompozitorlari ijodida yorqin ifodasini topadi.

Vena klassik maktabi namoyondalari Y.Gaydn, V.Motsart, L.Betxoven ijodlarida konsert janri yangi qiyofada to'laqonli shakllandi, o'ziga xos qonun-qoidalar asosida rivojlantirildi va sonata-simfonik turkum shaklida tasdiqlandi. Klassitsizm davrining oxirida konsertning klassik tuzilishi shakllandi. Unda:

1-qism Allegro – sonata shaklida bayon etiladi;

2-qism sekin sur'atda – ko'pincha 3 qismli ariya shaklida ifodalanadi;

3-qism tez harakatlanuvchi – rondo, rondo-sonata yoki mavzu va variatsiyalar shakllarida bayon etiladi.

Konsert shaklining ichida, qismlar orasidagi tuzilish va tartib qoidalari ham o'rnatildi. Xususan, birinchi qismida juftli ekspozisiya tamoyili qo'llanilgan; dastlab bosh va yondosh partiya mavzulari orkestrda asosiy tonallikda yangragan bo'lsa, undan so'ng ikkinchi ekspozisiyada mazkur partiyalar solist ijrosida talqin qilinadi. Shunga ko'ra asosiy partiya bosh tonallikda o'tsada uning yondosh partiyasi yakkaxon ijrosida tobe tonalliklarda o'tishi mo'ljallangan. Bunday talqin esa sonato allegro shakli talabiga to'liq javob bergan. Orkestr va yakkaxon orasidagi taqqoslash va musobaqaviy ruh asosan rivojlov, yoki qayta ishlov qismida to'liq ifodasini topadi.

Xulosa. Barokko va undan oldingi davrlarda konsert talqini muntazam o'zgarib rivojlantirilib borilgan. Ularda asosiy vazifa tematik rivojlanish tamoyillari bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Xususan, Konsert asosida yotgan mavzu ijrochining badihalik qilishiga qaratilgan kadensiya asosida yoritiladi. Bunday kadensiyalar odatga ko'ra asarni kodaga o'tish qismida joylashgan. V.A.Mosart konsertlarida kadensiya asosan figuratsiyali, kuychan, kompozitor uslubiga xos tiniq, musaffo va plastik jilvasi bilan ajralib turgan. L.V.Betxoven kadensiyalari esa umumiy dramatisasiya qilinishi bilan

shiddatga to'la. V.Mosart va L.Betxoven o'z konsertlarida ma'lum qolipga itoat qilishdan o'zlarini olib qochadilar, ba'zida hatto yuqorida ta'riflangan juftli ekspozitsiyadan yiroqlashadilar ham. Mosart va Betxoven konsertlari musiqa tarixida mazkur janrning eng etuk gullagan pallasini namoyish etadi. Romantizm davrida konsert janri yangi o'zgarishlarga duch keldi. Klassik shakllardan yiroqlashish asosan qismlar o'rtasidagi muvozanat o'zgarishi bilan kuzatiladi. Ular ijodida bir qismli konsertning ikki turi yaratiladi. Bular - kichik shaklli konsert turi – konsertshtyuk yoki konsertino va yirik shakldagi konsert. Yirik shakldagi konsert o'zining tuzilishiga ko'ra simfonik poemaga yaqin bo'lgan va mazkur janrga xos bo'lgan monotematizm hamda "uzviy rivojlanish" tamoyili xususiyatlarini o'zida mujassamlagan. Bunday bayon etish uslubi F.List ijodiga xosdir.

FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shakhbazova, G., & Boltaboyeva, S. (2023). SHAKESPEAREAN WORKS AND THE UZBEK PEDESTRIAN. *Scientific Impulse*, 2(13), 21-29.
2. Ruzmatovich U. S. et al. INCREASING THE ACTIVITY OF SCHOOL-AGED CHILDREN //World Bulletin of Social Sciences. – 2022. – T. 8. – C. 49-51.
3. Shahbazova G. Physical Culture Of Preschool Children //Journal of Academic Leadership. – 2022. – T. 21. – №. 1.
4. Gulrukh, S. (2022). CONDITIONS AND METHODS OF TEACHING THE THEORY OF MOVEMENT GAMES AND SPORTS ELEMENTS, TAKING INTO ACCOUNT THE DEVELOPMENT OF INDEPENDENCE OF PRESCHOOL CHILDREN. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW* ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(09), 75-84.
5. Shahbazova, G., & Usmanov, A. (2023). Conditions and Methods of Teaching the Theory of Movement Games and Sports Elements, Taking into Account the Development of Independence of Preschool Children. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(3), 119-123.
6. Shakhbazova, G. (2023). The Importance of Physical Education in the Health and Normal Development of Preschool Educational Institution Students. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(3), 124-129.
7. Tillayev, S., & Shahbazova, G. (2023). Methodology of Teaching the Basic Principles of Modern Table Tennis. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(3), 166-171.
8. Shaxbazova, G. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MUSTAQILLIGINI OSHIRISHNI HISOBGA OLGAN HOLDA HARAkatLI O'YINLARNI O'RGATISH SHARTLARI VA USULLARI. *Ta'lim fidoyilari*, 8, 81-86.
9. Gulrukh, S. (2022). METHODS OF ADAPTING PRESCHOOL CHILDREN TO SPORTS GAMES. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW* ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(10), 89-95.

10. Shahbazova, G. (2022). General hardening of children. INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(3), 46-50.

11. Shahbazova, G., & Alisher, U. (2022). The Importance Of Water Hardening Of Preschool Children. INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(3), 41-45.12.